



MOLIYA VA BANK ISHI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI ILMIY JURNALI



BANK TIZIMI AUDIT TEKSHIRUVIDA MUHIMLIK VA AUDITOR RISKI MASALALARI

Ibragimova Iroda Rashid qizi

Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti Audit kafedrası dotsenti, PhD.

Ergasheva Baxora Rustam qizi

O'zbekiston Respublikasi Bank moliya akademiyasi tinglovchisi.

Maqola haqida ma'lumot

Topshirilgan vaqti: 24.10.2024

Qabul qilingan vaqti: 19.11.2024

Tayanch so'z va iboralar: *audit, muhimlik, audit riski, tavakkalchilik, muhimlik darajasi, auditning xalqaro standartlari*

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada bank auditida muhimlik darajasi va audit riskini masalalari, takomillashtirish istiqbollari yoritilgan. Muhimlik va audit riskiga ta'rif berilib, uning darajasini aniqlash usullari, yondashuvlari formula va jadvallar yordamida keltirib o'tilgan.

ISSUES OF SIGNIFICANCE AND AUDITOR RISK IN THE AUDIT IN THE BANKING SYSTEM

Ibragimova Iroda Rashid qizi

Associate Professor of the Department of Audit, Tashkent State University of Economics, PhD.

Ergasheva Bakhora Rustam qizi

Student of Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan

ARTICLE INFO

Received: 24.10.2024

Accepted: 19.1.2024

Key words: *audit, significance, audit risk, risk, degree of significance, international standards of auditing*

Abstract

This scientific article describes the level of importance and audit risk in bank auditing, as well as the prospects for improvement. Significance and audit risk are defined, methods and approaches for determining its level are given using formulas and tables.

Kirish

Audit tushunchasi - xo'jalik subyektlari faoliyatining yakunlarini xolisona baholash bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan bog'liqdir. Chunki rejali xo'jalik yuritish usulida to'la mustaqil bo'lmagan korxonalarni audit qilishga zaruriyat yo'q bo'lib, ularni taftish qilish kerak edi. Shuning uchun barcha davlat vazirliklarida taftish boshqarmasi mavjud bo'lib, bu boshqarmalar rejali xo'jalik yuritishda muhim rol o'ynagan. Davlat banki tizimida ham taftish boshqarmasi mavjud bo'lib, barcha Davlat banki bo'limlari yilda bir marta rejali taftish qilinadi. Bundan tashqari, ayrim masalalar bo'yicha rejadani tashqari tezkor tekshiruvlar tashkil qilingan. Audit atamasi lotincha «audit» eshitmoq so'zidan olingan bo'lib, turli mulk shaklidagi korxona va

tashkilotlarning buxgalteriya hisobini yuritish, moliyaviy hisobotlarining haqqoniyligini tekshirish jarayonini anglatadi. Shu o'rinda aytish joizki, bank auditida auditning muhim bo'lagi hisoblanadi.

Bank auditida auditning muhim bo'limi bo'lib, mustaqil nazorat qiluvchi subyekt sifatida bank tomonidan berilayotgan moliyaviy axborotlarning haqiqiylikni tasdiqlaydi. Undan kutilayotgan maqsad bank faoliyatining barcha qirralari bo'yicha faktlarni yig'ish va baholash, hisobotlarni tekshirish, ularning me'yoriy hujjatlarga mos ravishda bajarilgan yoki bajarilmaganligini tekshirishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Arens A. va Loebbecke J. - Moliyaviy auditning nazariy asoslari va amaliyotini tadqiq qilgan olimlardan biri hisoblanadi. Ularning "Auditing: An Integrated Approach" asari auditi jarayonini aniq va keng tushuntirib beradi. Bu asarda auditorlik jarayonidagi har bir bosqich, jumladan muhimlik darajasi va audit riski bo'yicha ko'rsatmalar keltirilgan. Ular moliyaviy hisobotlar haqqoniyligini ta'minlashda ichki nazoratning muhimligini ta'kidlaydilar.

Whittington O. R. va Pany K. - Ular auditorlik jarayonida ichki nazoratning roli va ta'sirini chuqur o'rganganlar. Ularning asarlarida, xususan "Principles of Auditing and Other Assurance Services" kitobida, auditorlik amaliyotlarining barcha bosqichlari, jumladan muhimlik va audit riski bo'yicha muhim ma'lumotlar keltirilgan. Ular hisob-kitoblar auditi jarayonida ichki nazorat tizimini takomillashtirish, shuningdek, hisob-kitoblar jarayonida aniqlik va shaffoflikni ta'minlash usullari haqida to'xtalib o'tganlar. Alvin A. Arens va Randal J. Elder - "Auditing and Assurance Services" kitobida taqdim etilgan auditorlik amaliyotlari usullari va yondashuvlarida muhimlik va audit riski bilan hisob-kitoblar jarayonida uchraydigan asosiy muammolar va ularning yechimlari batafsil tahlil qilingan. Ular moliyaviy auditning xalqaro standartlariga muvofiqlikni ta'minlash va xatoliklarni kamaytirish yo'llarini ko'rsatgan.

Raymond N. Johnson va Susan W. Arens - Ushbu olimlar moliyaviy audit amaliyotlarini tadqiq etishgan va hisob-kitoblarni nazorat qilish uchun zamonaviy yondashuvlarni taklif qilishgan. Ular o'z tadqiqotlarida avtomatlashtirilgan tizimlar va IT texnologiyalarining auditdagi rolga alohida e'tibor qaratganlar. Ayniqsa, muhimlik darajasi va audit riski bilan hisob-kitoblarda elektron tizimlardan foydalanish orqali nazoratni kuchaytirish taklif qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqola doirasida amalga oshirilgan tadqiqot ishini o'tkazishda tijorat banklaridan olingan ma'lumotlarni xalqaro standartlar bilan ko'rsatkichlarini solishtirish, taqqoslash, induksiya, deduksiya, pozitivizm, eksperimentlar va so'rovnomalar, natijalarni tanlanmadan populyasiyaga qarab umumlashtirish, svod tahlili va boshqa usullardan foydalanildi. Banklarda moliyaviy hisobotlarini audit qilish jarayonini shakllantirish, ayniqsa konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobotini tuzish jarayonida foydalaniladigan turli shakldagi hisobot shakllari, ularni auditida auditning xalqaro standartlaridan foydalanilgan va ularning natijasida moliyaviy hisobotlarni xalqaro talablarga moslab taqdim qilingan.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Auditorlik tekshiruvda muhimlik nima ekanligini bilishdan oldin muhimlik so'ziga ta'rif berib olamiz. Muhimlik tushunchasiga qisqacha ta'rif beradigan bo'lsak, u ahamiyatli, jiddiy, alohida ahamiyatga ega ma'nolarda

ishlatiladi. Auditorlik tekshiruvda muhimlik esa bu hisobot ko'rsatkichlari uchun ahamiyatli hisoblanadi, chunki auditorlik tekshiruvda muhimlik axborot foydalanuvchilarning shu hisobotdan noto'g'ri foydalanishiga ham olib kelishi mumkin. Axbarot foydalanuvchilari kimlar? Ular davlat organlari, aksiyadorlar, kreditorlar va boshqalarni misol qilishimiz mumkin. Hisobot moddalarining muhimligi faqat ularning qiymatiga emas balki iqtisodiy mohiyatiga ham bog'liq hisoblanadi. Masalan xo'jalik yurituvchi subyekt yangi faoliyat turini taqdim etish natijasida yuzaga keladigan risklar ya'ni tavakkalchiliklar shart sharoitlardir.

Auditorlik tashkiloti o'z shartnoma majburiyatlarini bajarishda, amalda tekshiruv obyektlarini to'liq (100%) qamrab ola olmaydi. Natijada, moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining mutlaqo (shak-shubhasiz) haqqoniy ekanligini kafolatlay olmagan holda, ma'lum darajadagi tavakkalchilik bilan ularni tasdiqlaydi. Shu boisdan, auditor ishida doimo ma'lum darajada tavakkalchilik xavf-xatari mavjud bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki, auditor xulosasida bayon etilgan fikr har doim ham mutlaqo to'g'ri bo'lishi mumkin emas. Ammo, deyarli hamma vaqt axborotdan foydalanuvchilar uchun foydali bo'lishi lozim. Bunday foydalilikning ta'minlanishi ma'lum darajadagi muhimlik va risk bilan bog'liq va ularni to'g'ri baholashni talab etadi. Umumiy auditorlik amaliyotida muhimlik chegaralarini quyidagicha belgilash qabul qilingan:

$$0 < J < 1 \text{ (yoki foiz hisobida } 0 < J \% < 100)$$

Ushbu chegara oralig'idagi ehtimollik xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hisobotlarining ishonchililigiga ta'sir ko'rsatadigan xatolar mavjudligini aniqlash, tegishli auditorlik qarorlarini qabul qilish uchun ushbu xatolarni baholash mumkinligi (yoki mumkin emasligi) ni ifodalaydi. Bu Muhimlikni sifat jihatdan tavsiflaydigan tarkibiy qismdir. Muhimlikning miqdoriy jihatini tavsiflaydigan tarkibiy qismi esa uning ma'lum darajalari orqali ifodalanadi.

Demak, Muhimlik tushunchasi auditor tomonidan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatoning hajmini va o'tkaziladigan auditorlik tekshiruvining ko'lamini aniqlash hamda tuziladigan auditorlik xulosasining shaklini belgilash (ijobiy yoki salbiy) uchun birlamchi va asos bo'luvchi manba hisoblanadi¹.

Birinchi bosqichda auditor o'z malakasi va moliyaviy hisobotlarning dastlabki tahlili asosida qabul qilinishi mumkin bo'lgan va moliyaviy ma'lumotlardan foydalanuvchilarni qaroriga ta'sir etmaydigan xatolikning 1-jadvaldagi kabi eng yuqori va quyi chegaralarini belgilaydi. Minimal chegaradan past bo'lgan xatoliklar muhim bo'lmagan xatoliklar hisoblanadi. Maksimal ko'rsatkichdan yuqori bo'lgan xatoliklar esa muhim xatoliklar bo'ladi. Xatolik maksimal va minimal ko'rsatkichlar orasida bo'lsa, auditor bu xatolikni muhim bo'lgan yoki muhim bo'lmagan xatolik qatoriga kiritish uchun tahliliy mulohazani qo'llashi kerak.

¹ R.D. Do'smurotov, Sh.N. Fayziyev, I.N. Qo'ziyev, A.Z. Avloqulov, G'.V. Po'latov. "Audit". O'quv qo'llanma. I qism. Toshkent. "Iqtisod-\Moliya", 2008. 59-b.

1-jadval

Muhimlikning auditor belgilagan dastlabki ko'rsatkichi tahlili

No	Asos ko'rsatkich	Asos ko'rsatkichning so'mdagi ifodasi (ming so'm)	Muhimlikning auditor belgilagan dastlabki ko'rsatkichi			
			Minimum		Maksimum	
			%	Ming so'm	%	Ming so'm
1	Joriy aktivlar	60000	5	3000	10	6000
2	Joriy majburiyatlar	70000	2	1400	8	5600
3	Yalpi daromad	120000	3	3600	9	10800

Ikkinchi bosqichda auditor qabul qilinishi mumkin bo'lgan xatolikning umumiy kattaligini tanlangan asos ko'rsatkich elementlari o'rtasida taqsimlaydi. Buni

yuqoridagi jadvalda birinchi asos ko'rsatkich sifatida 2-jadvalda keltirilgan joriy aktivlar misolida ko'ramiz.

2-jadval

Muhimlikning dastlabki belgilangan chegara ko'rsatkichini joriy aktiv elementlari o'rtasida taqsimlash, ming so'm

Korxona balansidagi joriy aktivlar	Minimum	Maksimum
Pul mablag'lari	192	384
Debitorlik qarzlari	795	1590
Tovar-moddiy zaxiralar	2013	4026
Jami	3000	6000

Yuqorida keltirilgan misolda auditor o'z tajribasiga tayangan holda ortiqcha qiyinchiliksiz pul mablag'lari va debitorlik qarzlari schyotlari bo'yicha xatolikning yuqori va quyi chegarasini belgilashi mumkin. Ammo tovar — moddiy zaxiralar bo'yicha bu vazifani amalga oshirish murakkab kechishi mumkin. Shu sabab, auditor balans hisobotining bu elementi savdosiga nisbatan xatolik chegarasini boshqa joriy aktivlarga nisbatan yuqoriroq qilib belgilashi lozim bo'ladi.

Uchinchi bosqichda xatolikning haqiqiy qiymatini aniqlash va natijani dastlabki belgilangan ko'rsatkich bilan taqqoslashdan iborat. Misol uchun, faraz qilaylikki auditor tovar — moddiy zaxiralar auditini o'tkazish jarayonida bu element ko'rsatkichining umumiy haqiqiy ko'rsatkichidan 726 ming so'mga oshirib ko'rsatilganini aniqladi. Bu jarayonda 5772 ming so'm hajmdagi TMZ lar bo'yicha

operatsiyalarni aks ettirgan dastlabki hujjatlar va hisob registrarlari o'rganildi. TMZning umumiy joriy aktiv guruhiga nisbatan (60000 ming so'm) hajmi 34560 ming so'mni tashkil etadi. Natijada, TMZ bo'yicha oshirib ko'rsatilgan xatolikning sondagi ifodasi 4347 ming so'mni tashkil etadi ($726 : 5772 \times 34560$). Shu tartibdagi hisob — kitob debitorlik qarzlari va pul mablag'lari elementlari bo'yicha ham o'tkaziladi. Faraz qilaylikki, shu uslub bo'yicha muhimlik ko'rsatkichi yuzasidan hisob-kitob qilinganda pul mablag'lari bo'yicha xatolik 174 ming so'mni tashkil etdi. Debitorlik qarzlari bo'yicha xatolik esa 1318 ming so'mni tashkil etmoqda. Olingan natijalar 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Muhimlikning dastlabki belgilangan chegarasi va haqiqiy xatolik ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili.

Joriy aktivlar	Muhimlikning dastlabki belgilangan chegarasi		Haqiqiy xatolik	Haqiqiy xatolik hajmining dastlabki belgilangan ko'rsatkichdan chetlanish hajmi	
	Minimum	maksimum		minimum	maksimum
Pul mablag'lari	192	384	174	-18	-210
Debitorlik qarzlar	795	1590	1318	+523	-272
TMZ	2013	4026	4347	+2334	+321
Jami	3000	6000	5839	+2839	-161

Natija shuni ko'rsatmoqdaki, pul mablag'lari bo'yicha xatolik summasi muhimlikning minimal chegarasidan pastda. Demak, pul mablag'lari bo'yicha xatolik hajmi muhim emas va pul mablag'lari bo'yicha moliyaviy hisobotlarda keltirilgan ma'lumotlar to'g'ri. Debitorlik qarzlar bo'yicha xatolik hajmi maksimal va minimal ko'rsatkich oralig'ida. Shu sabab, auditor bu schyotlar ma'lumotlari to'g'riligi yuzasidan qo'shimcha testlar o'tkazishi kerak. TMZ bo'yicha xatolik hajmi maksimal chegaradan yuqori. Shu sabab, auditor bu schyot bo'yicha tekshiruv ko'lamini kengaytirishi kerak. Uchta element bo'yicha aniqlangan 5839 ming so'mlik xato hajmi maksimal belgilangan 6000 ming so'mlik chegaradan oshmadi. Auditorlik tashkilotlari mijoz - korxonalarda muhimlik darajasini aniqlash uslubiyatini ishlab chiqishlari, bu uslubiyat hujjatlashtirilishi va barcha audit tekshiruvlarida birdek qo'llanilishi maqsadga muvofiq. Bu uslubiyat ochiq xarakterga ega bo'lishi va zarurat bo'lganda tashqi qiziquvchilar uchun asoslab berilishi zarur. Muhimlik darajasi audit tekshiruvini rejalashtirish jarayoni yakunida aniqlab bo'lingan bo'lishi va audit rejasida ko'rsatilishi lozim. Auditor tekshiruvni rejalashtirish jarayonida, mijoz - korxona faoliyati bilan bog'liq ammo ma'lum bo'lmagan ma'lumotlarni tekshiruv jarayonida aniqlasa va bu moliyaviy hisobotlar bilan bog'liq ma'lumot bo'lsa, auditor dastlabki muhimlik

darajasini o'zgartirish huquqiga ega. Ammo bu o'zgartirish faqatgina katta auditorning ruxsati bilan, tegishli ishchi qog'ozlarda o'z ifodasini topgan holda kiritilishi kerak.

Audit riski — auditor tomonidan, muhim xatoliklarga ega bo'lgan moliyaviy hisobotlar yuzasidan, bilmagan holda noto'g'ri (teskari) xulosa berilishi riskidir. Boshqacha qilib aytganda, moliyaviy hisobotlarda muhim xatoliklar mavjud, ammo tekshiruv jarayonida auditor tomonidan ularning aniqlanmaslik xavfi. Audit rejasini ishlab chiqish jarayonida auditor audit riskiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashi lozim.

Quyida moliyaviy hisobotlarda muhim xatoliklar mavjud bo'lishi mumkinligini ko'rsatuvchi omillar ro'yxati keltirilgan. Xalqaro amaliyotda audit riskini baholashning quyidagi ikki usuli mavjud:

- 1) intuitiv;
- 2) hisoblash.

Binobarin, agar auditor tomonidan ichki xo'jalik riski va ichki nazorat riskini yuqori deb baholansa, unda xatolar tekshirilayotgan tijorat banki faoliyatining natijasi ekanligi aniq va auditor xatolarni aniqlamaganligi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi. Bunday holda aniqlanmaslik riski past bo'ladi. Auditorlik risklari o'rtasidagi bog'liqlikni quyidagicha tasavvur qilish mumkin (4-jadval).

4-jadval

Tijorat banklarida auditorlik risklarining bog'liqligi

		Topa olmaslik riski		
Ichki xo'jalik riski	Yuqori	Past	O'rtachadan past	O'rtacha
	O'rtacha	O'rtachadan past	O'rtacha	O'rtachadan baland
	Past	O'rtacha	O'rtachadan baland	Yuqori
		Yuqori	O'rtacha	Past
		Nazorat riski		

Auditorlik tekshiruvlari uchun muhim masala audit jarayonida tanlash hisoblanadi. Ushbu masalada iqtisodchilim U.O.Saxobov tomonidan ilmiy izlanishlarida auditorlik faoliyatida muhim hisoblangan auditorlik tanlovni chuqur o'rganib, auditorlik tanlov mohiyatining zarurligi, uning kelib chiqishi hamda asosiy muammolarini yoritib berdi. "Auditorlik tanlovi" bu – hisob schetlardagi qoldiqlar va schetlar bo'yicha oborotlar haqqoniyligi, hamda ichki nazorat tizimining ishonchligini aniqlash uchun jami elementlarni 100% dan kamroq tekshirish jarayoni hisoblanadi. Bundan tashqari, auditorlik tekshiruv va tanlov turlari, tanlovning hisob-kitob riski metodikasi, bank kredit portfelini hisoblash metodikasi batafsil tahlil qilingan. Kredit faoliyatining bank auditini o'tkazishda tanlov jarayonini avtomatlashtirish uchun "Audit sampling" dasturiy ta'minoti yaratildi. Bu esa, o'z navbatida, audit xizmati tekshiruv jarayonining tezkor va aniq ma'lumotlari hamda auditorlik isbot-dalillarini olish imkoniyatini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklari moliyaviy holatini tahlili iqtisodiy mohiyati va tushunchasi ko'pqirrali bo'lib, zamonaviy sharoitda uni chuqurroq va teranroq boshqarish yuzasidan qabul qilinadigan qarorlarni samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bank faoliyatining moliyaviy natijalarini tekshirishda auditorning professional sifatida fikr yuritishidan kelib chiqqan holda nazorat vositalari riskini baholash uchun, bizning fikrimizcha, quyidagi yondashuvning bittasidan foydalanish o'rinnidir:

1. Muvofiqlik bo'yicha tekshiruv o'tkazish. Bunda muvofiqlik bo'yicha tekshiruv o'tkazish va olingan ma'lumotlar asosida nazorat vositalari riski darajasini aniqlash zarur;
2. Daromad olish manbai yoki operatsion xarajatlar bo'yicha majburiyat sifatida xizmat qilgan bank operatsiyalariga doir nazorat vositalarini baholash (bazaviy operatsiyalar bo'yicha nazorat riskini baholash). Demak, kreditlar bo'yicha foiz daromadlarini tekshirishda mijozlar auditor tomonidan mijozlar ishtirokidagi kredit operatsiyalarini tekshirish davomida bajarilgan nazorat vositalari ishonchligini baholash natijalaridan foydalanishi lozim. Ta'kidlash kerakki, bunday yondashuvni xarajatlarning boshqa moddalariga nisbatan ham qo'llash mumkin (mehnatga haq to'lash, asosiy vositalarni saqlash xarajatlari, amortizatsiya ajratmalari, to'langan soliqlar va hokazo).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori, PQ-4611-son, <http://lex.uz/docs/3107040>.
2. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati

va Qonunchilik palatasiga murojaatnomasi. 2020-yil 25-yanvar. –Toshkent: "O'zbekiston", 2020. – 30 b.

3. Ибрагимов А.К., Марпатов М.Д., Ризаев Н.Қ. Халқаро молиявий ҳисобот стандартлари асосида банкларда бухгалтерия ҳисоби. Ўқув қўлланма. –Т.:Молия, 2010. – 272б. Б.64-65.

4. Дусмуратов Р.Д., Тулаев У.И. Молиявий ҳисобот: назарий, услубий ва амалий жиҳатлари. –Т.: "Extremum-Press", 2012, 144 б.

5. Ибрагимов А.К., Умаров З.А., Ҳотамов К.Р., Ризаев Н.К. – "Тижорат банкларида молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари" ўқув қўлланма –Т.: "IQTISOD – MOLIYA" нашри. 2019. –241 б.

6. Ибрагимов А.К, Очилов И, Ризаев Н. "Молиявий ва бошқарув ҳисоби".Т.: "Иқтисод-молия", 2009. –367 б.

7. А.В. Вахабов, А.К. Ибрагимов, Н.К Ризаев. Тижорат банклари ташқи аудитда халқаро молиявий ҳисобот стандартларини жорий этиш методологияси. –Т. Молия, 2011. –Монография. –188б.